

**QARDOSH TILLI MAKTABLERLARDA O'QUVCHILARGA O'ZBEK TILI
FANINI O'ZLASHTIRISH BO'YICHA YANGI METOD VA
QO'LLANMALAR**

Zuhra Yorova Baxtiyorovna

Toshkent viloyati Parkent tumani 42-umumta'lim

Maktabining o'zbek tili o'qituvchisi

Annotatsiya: *Til – barcha tomonlari o'zaro dialektik bog'lanishda va birlikda bo'lgan murakkab, ko'p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari, uning barcha jihatlari bir-biriga o'zaro ta'sir etadi, shunday sharoitdagina til o'zining aloqa quroli vazifasini bajara oladi*

Kalit so'zlar: *Ilmiy-metodologik ehtiyoj, grammatik tarjima, audio-lingual, komunikativ yondashuvlar, fonetik yaqinlik va singarmonizm, til ta'limida tafakkur va ong tushunchasi.*

KIRISH

O'zbek va tojik xalqlari juda uzoq davrlardan beri yonma – yon yashab, bir – birlari bilan iqtisodiy – ijtimoiy va madaniy munosabatda bo'lib kelmoqda. Ular o'tmishda birgalikda yirik qurilish inshootlarini yaratganlar, dushmanlarga qarshi jang qilganlar, oilaviy hayot kechirganlar va madaniy yodgorliklardan hamkorlikda foydalanganlar. B. G'.G'ofurovning yozishicha, o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi yaqinlik milodiy XI asrdan boshlangan.

Ikki xalq o'rtasidagi bu ijtimoiy aloqalar bizning davrimizda yanada mustahkamlandi. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va yaqinlik ularning tillariga ta'sir etmay qolmadi. Natijada tojik tilidan o'zbek tiliga ko'pgina so'z, so'z shakllari va turli iboralar o'tib o'zlashdi. Shu bilan birga o'zbek tilidan tojik tili va uning shevalariga ham ancha so'z va iboralar, affikslar kirib kelgan.

Ma'lumki, IX asr oxiriga kelib, O'rta Osiyoda arablar hukmronligi susaya boshlaydi. Ana shu davrda poytaxti Buxoro bo'lgan samonilar davlati barpo bo'ladi. Samoniylar davlatining podshohi Ismoil Ahmad Samoniy (874-907) va uning avlodlari 999yilgacha hukmronlik qiladilar. Bu davrda tojik – fors adabiyoti rivojlanadi. Tojik – forselat adabiy tili ham shaklanib, mamlakatning rasmiy tiliga, she'tiyat tiliga aylanib, shuhrat topgan edi. Tojik – fors adabiy tili bilan bir qatorda ilm – fan tili bo'lmish arab tili keng tarqalgan edi. Shunday qilib tojik – fors tili X – XV asrlarda juda ko'p elatlarning adabiy tili bo'lib xizmat qilib kelgan. Hatto ulug' Navoiy yashagan davrda – Xurosonda ham tojik – fors an'anasi kuchli edi. O'zbek adabiy tiliga tojik – fors tilidankirgan so'zlar miqdori mumtoz adabiyotimiz nomoyondalari asarlarida o'ziga xosdir. Masalan, Navoiy asarlarida ko'proq, Bobur, Muxammad

Solih, Hoja, Majlisiy, Abulg‘ozzi Bahodirxon asarlarida nisbatan oz. Lutfiy, Sakkokiy, Atoyi kabi Navoiy zamondoshlarining asarlarida ham o‘zlashgan so‘zlar o‘z qatlamga nisbatan ozdir. Tojikcha so‘z va shakllarning ishlatalishida ma‘lum uslubiy maqsad va o‘zicha ijtimoiy sabablar bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Masalan, Navoiy turkiy nom bilan atalgan eski o‘zbek tilini tojik tili darajasidagi adabiy tilga tenglashtirishni maqsad qilib ko‘yan edi. U o‘zining “Xamsa”, “Chor devon”, “Majolisun nafois”, “Mezonul avzon”, “Mahbubul qulub”, “Muhokamatul lug‘atayn” va sh.k. o‘ttizdanortiq asarlari bilan o‘zbek adabiyoti va o‘zbek adabiy tilining shuhratini jahonga yoydi. Xo‘s, Navoiy bu asarlarini yozishda adabiy tilni qaysi manbalar hisobiga boyitdi? Taniqli navoiyshunos Alibek Rustamovning fikricha, Navoiy eng ko‘p foydalangan va eng boy manba turkey lahjalar bo‘ldi. Navoiy asarlarida uchraydigan tojikcha va arabcha so‘zlar Navoiy davridagi ziyolilar tilida mavjud bo‘lgan deb tahmin qilsa bo‘ladi. Chunki, og‘zaki tilda ishlatalmasligi aniq bo‘lgan o‘zga til elementlari Navoiy tilida kam uchramaydi.

Ushbu maqolamizda qardosh tilli maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish muammlariga bag’ishlangan bo‘lib, uning integrativ yondashuv tamoillari va unga qo‘yilgan didaktik talablar masalalariga qaratilgan. Umuman olganda ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib yaratilayotgan darsliklarda inobatga olinishi o‘ta muhim bo‘lgan mulohazalar o‘rin olgan.

Bugungi kunda o‘zbek tilini ta’lim boshqa bo‘lgan sinflarda xorijiy til sifatida o‘qitish va ilmiy-metodologik ehtiyojlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Bu kabi yondashuvlar xorijiy tillarni o‘qitishda grammatik tarjima, audio-lingual, komunikativ va boshqa yondashuvlardan foydalaniib kelinadi. Endi o‘zbek tili qardosh tillar kesimida o‘qitilsa bir qator qulaylik va murakkabliklarni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, ular o‘rtasidagi fonetik yaqinlik va singarmonizmga asoslangan va asoslanmaganligi;

Ikkinchidan, leksik-grammatik yaqinlik va yaqin o‘tmishda bu tillarning o‘ziga xosligini saqlash maqsadida sun’iy uzoqlashtirilganligi;

Uchinchidan, yaqin vaqtlar ichida alifbolarini tez-tez o‘zgartilib turishi:

Ayniqsa, turkman tiliga ixtisoslashgan maktablarda buni ko‘rishimiz mumkin: H. Boboqulovning “Turkman tilining o‘qitish usullar” o‘quv qo‘llanmasida “Turkman tilining o‘qitish til xusiyatlari singarmonizm talablari qattiq amal qilishi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turadi”.

Shuni hisobga olganda turkman maktablarida boshlang‘ich sinflarda asosiy e’tibor to‘g‘ri yozish va o‘qishga qaratilsa, o‘zbek tiliga ixtisoslashtirilgan maktablarda grammatika va mantiqiy fikrlash ham o‘rin oladi va boshqa fanlar bilan intigratsiya ham so‘ngi nashr qilingan darsliklarda salmoqli o‘rin egallamoqda.

Shuning uchun ham yuqorida muammolardan kelib chiqib ta’lim sifati, uning samaradorligini oshirish kichik yoshdagagi o‘smirlarni ilmiy dunyoqarash elementlarini

shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti - o‘quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Ta’lim qaysi tilida olib borilmasin quyida ko‘rsatilgan omillar tilni o‘rgatish bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi:

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlang‘ich sinflarda tilni o‘rgatishning yetakchi yo‘nalishi o‘quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.
2. Til bilan tafakkur uzviy bog‘liq bo‘lib, tafakkur so‘z vositasida yuzaga chiqadi.

Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o‘zicha yashamaydi.

3. Til va tafakkur atrofimizni o‘rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir.

Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. Shuning uchun ham til o‘qitish mexanizmlarida “so‘z” tushunchaning shartli nomini o‘zida aks ettiradi. Dunyoda yo‘q narsa ongda ham, tilda ham bo‘lmaydi. Bu holat o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya’ni til atrofni o‘rab olgan muhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyati vaziyatida o‘rganilishini belgilaydi. Bunday yondashish dunyoqarashning asosiy masalalaridan biriga, ya’ni nima birlamchi ekanligini aniqlash: Bilim (ma’lumot)mi yoki tafakkurmi degan savolga javob tayyorlash hisoblanadi; tafakkur – birlamchi, ma’lumot-ikkilamchi degan tushunchadan o‘quvchilarning xabardor qilish bugungi ta’lim didaktikasi oldidagi eng asosiy metodik vazifadir.

Til – barcha tomonlari o‘zaro dialektik bog‘lanishda va birlikda bo‘lgan murakkab, ko‘p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari, uning barcha jihatlari bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi, shunday sharoitdagina til o‘zining aloqa quroli vazifasini bajara oladi. Agar biz qardosh tilli maktablarda bu narsani hisobga olmasak, ko‘zlangan natijaga erish olmaymiz. Chunki o‘quvchilarni didaktik tafakkurini rivojlantirmsandan tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so‘z yasalishi) ni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish o‘zbek tilini o‘rgatishdagi yetakchi tamoyil bo‘lib, uni amalga oshirish o‘quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o‘zaro bog‘langan muhim tomonlarga ega bo‘lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o‘zaro bog‘langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi. Maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarni o‘quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to‘g‘ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o‘qituvchining tutgan metodologik yo‘lining aniqligi, o‘quvchilar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o‘rgatishga

asos bo‘ladigan til materialining yuqori sifatli bo‘lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta’sir etadi. Shubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan ajralgan holda bo‘lmaydi. Aksincha, ularning bir-biriga to‘g‘ri, maqsadga muvofiq ta’siri ijobiy natija beradi. Tilni ijtimoiy hodisa sifatida tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Tilning ijtimoiy mohiyati uning aloqa vazifasini bajarishida ko‘rinadi. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini aniq tushunishga yordam berish uchun quyidagi jihatlarga ahamiyat berish kerak:

a) o‘quv jarayonida har bir til birligining nutqimizdagi o‘rnini o‘quvchilar o‘zlashtirishini ta’minlash zarur. O‘quvchilar tilning aloqa vazifasini tilning asosiy birliklari (fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi, gap)ning vazifasini tushunish jarayonida o‘rganadilar.

b) o‘quvchilarning tilning o‘zaro aloqa vositasi ekanligini tushunishlari “Til har bir kishi, umuman, jamiyat hayotida qanday o‘rinni egallaydi?” savoliga javob topishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar sinfdan sinfga o‘tishi bilan bu savolga javob chuqurlashib va kengayib boradi. Til kishilarning birgalikdagi mehnat faoliyatida, yangiliklarni maslahatlashib tushunishida, yangi mashinalar ixtiro qilishda zarurligi haqida misollar topib, o‘z fikrlarini tasdiqlaydilar. Yoshlari ulg‘aygan sari o‘quvchilar odamning odam bo‘lishida tilning ahamiyatini tushuna boradilar. Odam o‘zining fikrlash faoliyatini rivojlantirish va nutqini o‘stirish bilan o‘zini doimo takomillashtirib boradi. Olamni, koinotni o‘zgartira borib, kishi yanada kamol topa boradi, uning tili ham boyiydi. Kishilar bilan, jamiyat a’zolari bilan aloqa, munosabat har bir kishining o‘sishi, rivojlanishidagi zaruriy shartlardan hisoblanadi.

d) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarashini shakllantirishda tilning kelib chiqishi, tilda yangi so‘zlarining paydo bo‘lishi haqida ularning saviyasiga mos bo‘lgan “sir” ni yechish (tushuntirish) ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga tilning bir kishi tomonidan maxsus o‘ylab chiqarilmaganini, u ibridoiy odamlarning mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda yaratilganini va asta-sekin rivojlanib borganini tushuntiradi: “Bizdan juda uzoq vaqtlar ilgari tilda faqat bir necha o‘ngina so‘z mavjud edi, kishilar atrofdagi tabiatni, narsalarni bilib, ish qurollari yaratib, nimadir ishlab chiqarganlari sari tilda yangi so‘zlar paydo bo‘la boshladi. Atrofimizda mavjud bo‘lgan shaxs va narsalarga, ularning belgilariga, jarayonga, juda ko‘p boshqa narsalarga kishilar nom qo‘yanlar. Shunday qilib, til yangi so‘zlar bilan boyidi va boyib bormoqda”.

Boshlang‘ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o‘rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo‘lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik

tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘qituvchi va o‘quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, til ta’limida ayniqsa qardosh tilli maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish faqat metodologik yondashuvlarni rivojlantirish bilan emas, darsliklar yaratishda uning integrativ tamoillari va didaktik talablarga ham javob berishini hisobga olishimiz va zaruriy tavsiyalar ishlab chiqarish lozimligini tadqiqotimiz va olib borgan sinov tajribalarimizda bo‘y ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi, 7– maxsus son. – T.: “Sharq”, 1999.
2. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti, “Boshlangich. ta’lim”. jurnali. – Toshkent, 2017. – № 5. 5, 6, 8–9–betlar.
3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi, “Boshlangich ta’lim”. jurnali. – Toshkent, 2005. – № 5. 21 –33–betlar.
4. Babakulov H. “Türmen dilini okatmak metodikasy”, Türkmenabat-2010.
5. Internet ma’lumotlari